

YOSHLARIMIZNI YUKSAK MA'NAVIYAT VA MADANIYAT EGASI ETIB

TARBIYALASHDA ILM-FANNING O`RNI

Tovosharov G'anisher Abdullayevich

Surxandaryo viloyati IIV akademik litseyi

Tarix fani o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarmizni yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalashda ilm-fanning o`rni haqida so`z yuritilgan. Ta`lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Kalit so`zlar: ta`lim, tarbiya, ma`naviyat, madaniyat, tafakkur, bilim, malaka, pedagog.

Abstract. This article talks about the role of science in educating our youth to be the owners of high spirituality and culture. Education helps to solve the important problems of the construction of the society - to create the material and technical base of the society, to form social relations, to educate a new person.

Key words: education, training, spirituality, culture, thinking, knowledge, qualification, pedagogue.

Bugungi kunda Respublikamizda ta`limga berilayotgan e`tibor yoshlarni astoydil bilim olishga, ustoz va murabbiylarni esa sidqidildan mehnat qilib, komil insonlarni tarbiyalashga undamoqda. Tarixdan ma'lumki, qaysi mamlakatda tinchlik hukm sursa,adolat ustuvor bo`lsa, fuqarolarning haq-huquqlari himoya qilinsa, eng asosiysi, davlatning yuqori organlari bilan xalq o`rtasida uzilmas, mustahkam ko`prik barpo qilinsa, o`sha mamlakatda ta`lim-tarbiya, san`at, sport taraqqiy topadi.

So`nggi yillarda ta`lim sohasiga, xususan, uning ajralmas qismi hisoblangan o`qituvchilarga bo`lgan e`tibor, shubhasiz, ancha o`zgardi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu kasbni egallashni xohlovchi yoshlар soni kundan-kunga oshib bormoqda. Maqolamiz uchun tanlangan mavzuning dolzarbligi, muhimligi va ahamiyati shu jarayon bilan bevosita bog`liq. Xorijda ta`lim sohasiga va o`qituvchilarga berilayotgan e`tibor bilan o`zimizdagи imkoniyatlarni solishtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bizning ta`lim tizimimiz ko`zlangan maqsadlarga erishish uchun hali ancha qadamlar bosishi kerak. Bu yo`lda o`qituvchi-pedagoglarga bo`lgan hurmat va ularning jamiyatdagi o`rnining yanada yaxshilanishi juda muhim omil hisoblanadi. Fikrlashimizcha, mazkur tamoyil ta`lim tizimimiz rivojlanishining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida nostandart fikrlaydigan ijodkorlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Hozirgi vaqtda fan sohasida bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga

yo`naltirilgan mutaxassislarni an`anaviy tayyorlash zamonaviy talablardan ortda qolmoqda. Zamonaviy ta`limning asosi o`quv fanlari emas, balki o`quvchilarning fikrlashi va faolligi bo`lishi kerak. Har qanday oliy o`quv yurtining vazifasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni bitirishi, balki o`quvchi-talabalarni tubdan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga, ularni ishlab chiqarish muhitining real sharoitlariga moslashtirishga qo`shishdir. Shu bilan birga, o`quv jarayonida o`quvchi - talabalarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirish muhim: ijodiy faollik, ijodiy fikrlash, baholash, rasionalizasiya qilish va bozorning o`zgaruvchan ehtiyojlariga tez moslashish qobiliyati. Bunday ko`nikmalarni egallash ko`p jihatdan bo`lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubiga bog`liq.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o`quvchi-talabalarni o`qitishning innovation yondashuvlari tizimli bo`lishi va bo`lajak mutaxassislarni tayyorlashda o`qitish va tarbiyaviy ishlarning barcha jabhalarini qamrab olishiga alohida e`tibor qaratiladi. Shuningdek, ta`lim mazmuni, o`qituvchilarning kasbiy va pedagogik tayyorgarligi, yangi texnologiyalar va o`qitish usullarini ishlab chiqish bo`yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni qayta ko`rib chiqish zarur. Bu masalalarni J.Martin, L.Svenson, I.Lerner, M.Skatkin, V.Bespalko, V.Slastenin, O.Pexota, S.Sysoeva va boshqalar kabi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar faol o`rganishadi. Ammo, o`quvchilar uchun innovation o`qitish usullarining xususiyatlari va o`ziga xos xususiyatlarini ko`rib chiqish, shuningdek, ta`limning har xil innovation shakllaridan foydalanishning afzalliklari va istiqbollarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O`quv jarayonida qo`llaniladigan innovation ta`lim texnologiyalarining asosi o`quvchilarning individual, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy buyurtma, bo`lajak mutaxassislarining kasbiy manfaatlari bo`lishi kerak. Shuning uchun oliy ta`limda mutaxassislar tayyorlashda innovation shakl va usullardan foydalanish ta`lim va o`qitishning maqsad va vazifalarini pragmatik tushunish bilan birlashtirilishi kerak.

Zamonaviy psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta`kidlanishicha, innovation uslublar o`quv jarayonini rivojlantirish va takomillashtirishga, zamonaviy jamiyatning turli sohalarida professional faoliyat uchun mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ko`plab o`qitish texnologiyalarida o`z aksini topgan. Ular o`quvchi-talabalar o`rtasida kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun sharoit yaratadi, bo`lajak mutaxassisning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga hissa qo`shadi. O`qitish jarayonida o`qituvchilar tomonidan innovation usullardan foydalanish turli fanlarni o`qitishda stereotiplarni bartaraf etishga, kasbiy vaziyatlarga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga, o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta`limga e`tibor – kelajak poydevoridir. Ta`limga sarflanadigan xarajatlar ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi, chunki ular davlat va jamiyat tomonidan fuqarolar ta`limiga qaratilayotgan e`tibor darajasini aks ettiradi. Ta`limga investisiyalar nafaqat mamlakatning inson kapitalini yuksaltirish va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilashning muhim usuli hisoblanadi, balki ular ham o`ziga xos qiymatga ega,

chunki ta`lim odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi, o`z-o`zini anglash imkoniyatini beradi va o`z materiallarini yaratishga hissa qo`shti, farovonlik va sog`lom turmush tarziga bevosita bog`liq. Shu bilan birga, bu ko`rsatkich ma`lum bir davlat ichidagi har xil ijtimoiy guruhlar o`rtasida ta`limga sarflanadigan xarajatlar qanday teng yoki notekis taqsimlanganligini, ta`limga davlat va xususiy xarajatlar nisbati va bu xarajatlar tarkibi, shuningdek, ular bilan bog`liqligini hisobga olmaydi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, bir qator rivojlanmagan mamlakatlarning nisbatan yuqori lavozimlari, qoida tariqasida, ushbu davlatlarning xalqaro institutlari va xayriya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan ommaviy savodsizlikni yo`q qilish dasturlari bilan bog`liq. Shuning uchun bu reytingni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining ta`lim darajasi bo`yicha dunyo mamlakatlari reytingi bilan birgalikda tahlil qilish tavsiya etiladi.

“O`qituvchi abadiyatga ta`sir ko`rsata oladi, uning ta`siri qaerda tugashini hech qachon bilib bo`lmaydi.” - Genri Adams.

Darhaqiqat, avloddan-avlodga o`tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz hamda mentalitetimiz negizada, shubhasiz, o`qituvchiga bo`lgan hurmat va e`tibor mujassam.

Yuqoridagi keltirilgan barcha ilmiy ma`lumotlar va shaxsiy izlanishlarimiz xulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, talaba va o`qituvchi o`rtasidagi to`g`ri o`quv dasturini yo`lga qo`ygan va o`zaro hurmatni shakllantirgan ta`lim tizimigina ko`zlangan progressga erisha oladi.

O`qituvchiga ko`rsatiladigan hurmat juda ham ko`p omillar ta`sirida shakllanadi. Ulardan eng birinchisi – hukumat tomonidan beriladigan e`tibor hisoblanadi. Agarda o`qituvchilarga etarlicha sharoit yaratilib berilsa, jamiyatdagi o`rni mustahkamlansa, haqiqatdan ham boshqa barcha kasblarning otasi sifatida qaralishi ta`minlab berilsa, shubhasiz, bu o`z natijasini beradi. Shunday sharoitlarda tarbiyalanib chiqqan har bir avlod o`zidan keyingi avlodga ham shuan`anani meros qilib qoldiradi.

Zamon talablariga javob beradigan hamda milliy qadriyatlarni o`zida uyg'unlashtirgan intellektual platforma yaratilayotgani ham shundan dalolat beradi. Aslida “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyilini hayotga tatbiq etish mazmun-mohiyatida ham yoshlarni har tomonlama barkamol voyaga etkazish, jamiyatda inson kapitali salohiyatini tubdan oshirishdek ezgu maqsad mujassamdir.

Ta`limning eng quyi bo`g'inidan yuqori pog'onalarigacha olib borilayotgan bunday nekbin o'zgarishlar to`rt-besh yilga mo'ljallangan populistik loyihalar emas, balki uzoq istiqbolni o`z ichiga olgan, mamlakatdagi har bir insonning buguni, ertasiga xizmat qiladigan, taqdiriga bevosita daxldor islohotlardir. Zero, xitoylik mashhur faylasuf Konfutsiy bundan bir necha asrlar aytib ketgan quyidagi hikmat hozir ham juda dolzarbdir: “Agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo`lsang, bug'doy ek. O'n yil boqmoqchi bo`lsang, daraxt ko'kartir. Asrlar davomida boqmoqchi bo`lsang, ilmli qil”.

Demak, yangi O'zbekistonda yoshlarni ilmli, bilimli qilish, ularni raqobatdosh kadrlar etib tayyorlash, kelajakka ishonch bilan kirib borishi uchun ustuvor ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Zamonaviy yuksalish sari qadamlar ta'lif dargohlari ostonalaridan boshlanayotganining boisi ham shunda.

SHunga yarasha bugungi murakkab va sinovli davrda intellekt eng katta xazina ekanini anglab etayotgan, farzandlarini ham shunga da'vat etayotgan ota-onalar ko'payyapti. Buni pragmatik jihatdan ham eng to'g'ri yondashuv deb aytish mumkin. Mazkur haqiqat eng ilg'or davlatlarda tan olingani, amalda o'z isbotini topib kelayotganiga esa ancha bo'ldi. Masalan, AQSHliklarning aytishicha, hech bir investitsiya bolaning bilimli bo'lishi uchun sarflangan sarmoyachalik foyda keltirmaydi. "Agar neft` va oltin qazish sohasiga bir dollar investitsiya kirlitsangiz, to'rt-besh baravar, bozordan narsa olib sotsangiz yigirma-o'ttiz foizdan bir baravargacha foyda keltirishi mumkin. SHu mablag'ni farzandingizni o'qitish uchun yo'naltirsangiz, ming dollar bo'lib qaytadi", deydi okean ortidagilar. Bugungi kunda G'arb davlatlarida innovatsiyalar, ilm-fan, ta'lif taraqqiyoti va imkoniyatlari qanday ekanidan esa o'zingiz yaxshi xabardorsiz.

"Ta'lif — birlamchi" degan g'oyaning yana bir juda muhim tarafi borki, u biz uchun ham aktual bo'lib, nafaqat mamlakatimizni yangilash, ravnaq toptirish, balki ijtimoiyadolat va barqarorlikni ta'minlashda katta rol` o'ynaydi. Bu kambag'allikka qarshi kurashish bilan bog'liq. Zero, AQSHlik iqtisodchi Jeffri Saksning ta'kidlashicha, jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beradigan oltita omil mavjud. Ular: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o'rnatilgan kapital va bilimlar kapitalidir. Ushbu mezonlarga erishishda esa, birinchi navbatda, ta'lif saviyasi va sifati, u bilan aholini qamrab olish darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilgari surilayotgan ushbu tashabbuslar, amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlarni bevosita kuzatib, aytish mumkinki, odamlar ko'nglida "Barkamol avlod ta'lif-tarbiyasi yo'nalishida jahon standartlari darajasiga erishamiz va bugungi muvaffaqiyatlarimiz ko'lami ortib boraveradi" degan ishonch mustahkamlanmoqda.

Oldinga qo'yilgan marralar, albatta, o'z-o'zidan zabit etilmaydi. Buning uchun, avvalo, barcha bir yoqadan bosh chiqarish, islohotlar mazmun-mohiyatini chuqur anglash qatorida, ular ijrosiga kamarbasta bo'lish kerak. Bu, o'z navbatida, dunyoqarashni o'zgartirish, eskicha fikrlashdan voz kechish, uyg'onish va boshqa mudroq qalblarga ham turtki berishni talab etadi. Zotan, yoshlar taqdiri haqida qayg'urish nafaqat davlat yoki hukumatning, balki har birimizning asosiy burchimizdir.

Binobarin, jamiyatda bilimga asoslangan o'zaro ahillik va hamjihatlik kayfiyati Uchinchi Renessans eshiklarini ochib beradi. Zotan, SHarq donishmandlari aytganidek, "eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!" SHunday ekan, mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish,

yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlar hamisha bardavomdir. Belgilangan strategik maqsadni amalga oshirish, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuqori bosqichga ko'tarishda ta'lim sohasini ham muhim o'rinn tutadi. Zero, ta'lim va tarbiya masalasi har qanday jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishi sanaladi. Xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlarga bilim berayotganimizdan, yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim sohasida mehnat qilayotganimizdan faxrlanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oblanazarovna, S. N. (2022). LINGUISTIC VIEWS OF WOMEN'S COMMUNICATION. *Academicia Globe: InderScience Research*, 3(01), 83-88.
2. Oblanazarovna, S. N. (2022). Psycholinguistics One of The Modern Branches of Linguistics. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 4, 277-280.
3. Muydinovich, R. I. (2021). Innovative approach to ensuring the continuity of teaching computer science in the system of continuous education of the New Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1622-1629.
4. MUYDINOVICH, R. I. (2020). Problems and Solutions of Online Education in Tertiary Institutions. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(11), 58-60.
5. РАСУЛОВ, И. М., & ТОЛИПОВ, У. К. (2018). РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития* (pp. 198-203).
6. Muydinovich, R. I. (2021). Strategic Conditions for the Modernization of the Educational System in the 3-Renaissance. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(6), 85-92.